

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**"TOSHKENT IRRIGASIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZASIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI"  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**



**60710800 – "Gidroenergetika"**

**60812700 – "Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika ob'yektlari"**

**60812500 – "Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish"  
bakalavriatura ta'lrim yo'nalishlari bo'yicha malakaviy ishlab chiqarish  
amaliyotini o'tkazish**

**DASTURI**

**TOSHKENT-2023 yil.**

Amaliyot dasturi “Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti “Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar” kafedrasida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

Bazarov D.R.

“TIQXMMI” MTU, “Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar” kafedrasi mudiri t.f.d. prof.

Uralov B.R.

“TIQXMMI” MTU, “Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar” kafedrasi t.f.d. prof.

**Taqrizchilar:**

Qodirov O. “Gidrotexnika inshootlari va muhandislik konstruksiyalari” kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi.

Fayziyev X., Toshkent arxitektura-qurilishi universiteti, “Gidrotexnika inshootlari, zamin va poydevorlar” kafedrasi professori, texnika fanlari doktori;

Amaliyotning dasturi “Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universitetining Ilmiy-metodik kengashida tavsiya qilingan (20\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_dagi \_\_-sonli bayonnomasi).

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 iyundagi “Oliy ta’lim sohasidagi islohatlar natijadorligi hamda yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari to‘g‘risidagi” 34-sonli bayoni hamda vazirlilikning 2021 yilning 23-iyuldaggi 314-sonli buyrug‘ini ijrosini ta’minalash maqsadida 2021 yilning 23-avgustidagi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2/10-46-sonli buyrug‘ini bajarish maqsadida Oliy ta’lim muassasalarining tarmoq korxonalari bilan 10 yillik shartnomalarini ishlab chiqildi. Oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risda”gi PQ-3702 sonli qarorlarida ko‘rsatilgan oliy ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot yaxlitligi ta’minalash, talabalarning malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida o‘tkazishni samarali tashkil etish, har bir talabaning tegishli tarmoq (soha)ning muayyan tashkilotlari va korxonalarida malakaviy amaliyotlari tizimli ravishda o‘tkazilishini tashkillashtirish, talabalarning ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotlarini sohaviy korxona va tashkilotlarning ishlab chiqarish jarayonlari bilan chambarchas bog‘lash, korxona va tashkilotlar ob‘ektlarida talabalarning amaliyotini tashkil qilish va ustoz-shogird tizimi asosida o‘tilishini ta’minalash hamda talabalarni ishlab chiqarishning yangi me’yoriy hujjatlari, zamonaviy informatsion dasturiy ta’minot mahsulotlari bilan yaqindan tanishtirish, tizimdagisi korxonalar va tashkilotlarda talabalarning ilmiy ishlarni bajarishga ko‘maklashish kabi belgilangan vazifalar amalga oshirish maqsadida ushbu amaliyot dasturi ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlashning muhim qismi bo‘lgan talabalar amaliyoti tanlangan sohaga mos keladigan ilg‘op korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o‘tkazilishi kerak bo‘ladi. Chunki, talabalar amaliyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari fanlarining nazariy qismini mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan, o‘qish jarayonining bevosita ishlab chiqarish sharoitlarida o‘tkaziladigan davomi hisoblanadi.

Respublikamiz suv xo‘jaligida olib borilayotgan tub o‘zgarishlar mamlakatimiz iqtisodiyotida o‘z samarasini bermoqda. Jumladan, suv xo‘jaligini boshqarish tizimida ham bozor iqtisodiyoti mexanizmlari va prinsiplari joriy etilmoqda. Shuningdek, korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlardan tashqari ularning xo‘jalik mablag‘lari, xo‘jalik mabalag‘larini manbalari va xo‘jalik jarayonlarini to‘g‘ri hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish amaliyoti 60812700- “Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika ob‘yektlari”, 60812500 –“Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish” yo‘nalishlari bakalavrularini tayyorlash dasturiga kiradi. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha oliy ta’lim davlat standartiga (OTDTS) binoan Ishlab chiqarish amaliyoti vaqtida talabalar mustaqil ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar,

mutaxasislik bo'yicha o'z bilimlarini kengaytiradilar, gidrotexnik ob'ektlarni loyixalash, qurish, ekspluatatsiya qilishni zamonaviy metodlarini o'rganadilar, gidroenergetik ob'ektlarni ishlab chiqarish jarayonini, boshqarish va ta'mirlash ishlari metodlari bilan tanishadilar, irrigatsiya tarmoqlari suv energiyasidan foydalanishdagi ekologik va tabiatni muhofaza qilish muommolarini o'rganadilar.

Hozirgi kunda iqtisodiyotimizning dolzarb sohalaridan biri yer va suv resurslaridan foydalaniladigan suv xo'jaligi sohasidir. Hozirgi kunga kelib, Respublikamizda 10 ta irrigatsiya tizimi xavza boshqarmalari, bir nechta magistral kanallar va 1504 ta suvdan foydalanuvchilar uyushmalari vujudga kelgan. Ularning mol-mulkini to'g'ri hisobga olish va mablag'larini sarflanishini nazorat qilish buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi bo'lib, bu vazifani amalga oshirish uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Shuningdek, etuk kadrlarni tayyorlash uchun ularga nazariy jihatdan chuqur bilim berish va olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan mustahkamlash muhimdir. O'quv amaliyoti dasturi DTS, o'quv reja hamda «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyot haqida»gi Nizomi asosida tuzildi.

## **MALAKAVIY ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTI BO'YICHA TALABLAR**

ishlab chiqarish amaliyotini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallarni to'plash, gidrotexnika va gidroenergetika ob'ektlarini borib ko'rishi, ularni loyihalash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish jarayonida qatnashishi, nazorat o'ichov asboblari ishini o'rganish, ma'lumotlar to'plash va ularga ishlov berish, xulosa chiqarishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

- ishlab chiqarish amaliyotida qabul qilingan aniq nasos stansiya (NS) yoki gidroelektrostansiya (GES) ishini tabiiy sharoitda kuzatish;
- GES yoki NS larda asosiy ta'mirlash – rekonstruksiya ishlarini bajarish;
- zamonaviy texnika va texnologiyalarni tadbiq qilish hamda texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

## **MALAKAVIY ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTINING MAQSADI VA VAZIFALARI**

**Ishlab chiqarish amaliyotining maqsadi:** talabalarning nazariy olgan bilimlarini mustahkamlash, suv xo‘jaligini boshqarish va uning tashkiliy tuzilmasi, loyihalash, qurish va ekspluatatsiya tashkilotlari faoliyati bilan bevosita tanishish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat.

-korxonalarining (GES, NS, O‘z.R. SXV tizimidagi tashkilotlar) ishlab chiqarish –xo‘jalik faoliyatini o‘rganish;

-gidroenergetik qurilmalarni loyixalash va ekspluatatsiya qilishning ishlab chiqarish-texnologik jarayonini o‘rganish;

- qurilmalarni ekspluatatsiya qilishda texnika havfsizligi qoidalarini o‘rganish;

-mehnatni ilg‘or usullari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni ega bo‘lish;

-mutaxasislikning nazariy fanlari bo‘yicha bilimlarini kengaytirish.

**Ishlab chiqarish amaliyotining vazifalari:**

-korxonalarini tarkibiy va tashkiliy tuzilishini o‘rganish;

-iqtisodiy, mehnatni ilmiy tashkil qilish, rejalashtirish va boshqa-rish masalalari bilan bilan tanishish;

-jihozlardan, yordamchi sistemalardan va avtomatlashtirish vositalari-dan texnik foydalanish qoidalarini o‘rganish;

-amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish;

-standartlashtirishni meyoriy va texnik hujjatlarini o‘rganish;

-texnik hujjatlarni qo‘llash ko‘nikmalarini egallash;

-korxonalarda mehnat va atrof muxit muxofazasi, yong‘in va hayot faoliyati xavfsizligi masalalarini o‘rganish;

-o‘quv – tadqiqot ishlari, kurs loyihasi va bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun materiallar yig‘ish.

## **ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTINING MAZMUNI**

Institutdan tayinlangan amaliyot raxbari talabalarni ishlab chiqarish ko‘nikmalari hamda korxona iqtisodiyotini tashkil qilish bo‘yicha talabalarga shart-sharoit yaratib beradi yoki amaliyot o‘tash uchu nish joyi bilan ta‘minlaydi. Korxona boshlig‘i tomonidan belgilangan xodim amaliyotga rahbarlik qiladi hamda doimiy ravishda amaliyotning o‘tishi ustidan nazorat olib boradi.

Talabalar korxonada ishlab chiqarish texnologiyasi hamda iqtisodiyotni yuksaltirish bo‘yicha quydagilarni o‘rganishi kerak.

-korxonaning ishlab chiqarish faoliyati, bo‘lim va bo‘linmalarning o‘zaro

aloqalari:

- asosiy ishlab chiqarish texnologiyasining bosqichma-bosqichligini;
- korxonaning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, moddiy-texnika ta'minoti va korxonaning rivojlanish istiqbollarini;
- korxona iqtisodiy moliyaviy bo'limining korxonadagi boshqa bo'linmalar bilan bog'liqligini, bo'lim boshliqlarining vazifasini o'rganib hisobotga ilova qilinadi.

Korxonada amaliyot o'tayotganda boshlang'ich xujjatlarning tuzilishi, aylanishi, ularning ma'lumotlaridan foydalanib, boshqaruvning samaradorligini oshirish yo'llarini asoslashi talab qilinadi.

## **ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTI BO'YICHA BILIM, MALAKA VA KO'NIKMAGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

Ishlab chiqarish amaliyoti bo'yicha talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- suv xo'jaligi korxonalarida boshqaruvni tashkil etish tartibini;
- iqtisodiy tahlil usullarini amaliyotda qo'llash tartibini;
- loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqishini;
- ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyatini tahlil qilishni va resurslarni oqilona foydalanish yo'llarini topishni bilishi;
- yangi texnika va texnologiya bo'yicha meliorativ tadbirdarning texnikiqitisi ko'rsatkichlarining asosi bo'yicha;
- ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini, ilg'or texnologiyalarini va xorijiy tajribalardan foydalanish bo'yicha;
- me'yoriy xujjatlarni (nizom ichki tartib qoidalari, ishchi va lavozimli yo'rqnomalari va boshqalar) ishlab chiqish va amalda foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lish lozim:

## **ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTINING OB'EKTI**

Talabalarga «Nasos stansiyalari va GES» fanidan bo'ladigan o'quv tanishuv, qidiruv-tanishuv amaliyoti institutning «Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar» kafedrasi auditoriyalarida, amaliyot o'tkazish uchun shartnomaga tuzilgan va unda ko'rsatilgan:

I. GTI va NSF yo'nalichlari talabalari uchun. 1. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari (100187, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy); 2. Suv xo'jaligi vazirligi Nasos stansiyalar va energetika boshqarmalariga qarashli nasos stansiyalari (100187, Toshkent shahri, Mirzo

Ulug‘bek tumani, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy); 3. «UzGIP» MChJ (Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 44 uy); 4. «Gidroloyiha» AJ (Toshkent shahri, Bobir ko‘chasi, 20 uy); 5. «Davsuvxo‘jaliknazorat» davlat inspeksiyasi (Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Turkqo‘rg‘on ko‘chasi, 26 uy); 6. «O‘zbekgidroenergo» AJ, (Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, A. Navoiy ko‘chasi, 22 uy).

II. ITGO yo‘nalishlari talabalari uchun. 1. «O‘zbekgidroenergo» aksiyadorlik jamiyatiga qarashli tashkilot va ob’ektlar (Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, A. Navoiy ko‘chasi, 22 uy).

III. Gidroenergetika yo‘nalishlari talabalari uchun. 1. «O‘zbekgidroenergo» aksiyadorlik jamiyatiga qarashli tashkilot va ob’ektlar (Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, A. Navoiy ko‘chasi, 22 uy).

Talaba amaliyot o‘tkazish jarayonida topshiriqqa mos ravishda bajarilgan ishlar bo‘yicha hisobot tayyorlaydi.

## **AMALIYOT O‘TKAZISHNI TASHKIL ETISH**

Talabalarni amaliyotga olib borishdan oldin korxona, tashkilot va uyushmalar bilan institutning o‘zaro majburiyatlari shartnomaga asosida aniqlanadi.

Amaliyot shartnomalarni tuzish uchun tanishuv amaliyoti o‘tilishi rejalashtirilgan tashkilot raxbarlariga oliv o‘quv yurti ma’muriyati tomonidan so‘rov xati taqdim etilishi kerak. Bunda tashkilot rahbari tanishuv amaliyoti dasturi va amaliyot o‘tish rejalashtirilgan muddatlar bilan oldindan tanishtirishi kerak.

## **ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTINI O‘TASHDA TALABALANING VAZIFALARI**

Ishlab chiqarish amaliyotini o‘tashda talabalarning vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- belgilangan vaqtda amaliyot o‘taydigan joyga borishi;
- amaliyot o‘tayotgan korxonada belgilangan tartibga rioya qilish, mexnat qonunchiligida belgilangan tartibga bo‘ysunishi;
- tasdiqlangan kalendar rejaga amal qilish va bajarish;
- ishlab chiqarish amaliyoti rahbarining bergen topshirig‘ini to‘liq va o‘z vaqtida bajarishi;
- har bir bajargan ishlari bo‘yicha kundalik yuritish, xamda bajarilishini amaliyot rahbariga tasdiqlatish;
- amaliyot o‘tash to‘g‘risida har kuni belgilangan rejaga muvofiq hisobot yozish amaliyotining ohirgi kunida tayyor bo‘lishi kerak;
- hisobotga amaliyotni o‘tganligi to‘g‘risida korxona tomonidan berilgan

tavsifnomalar qiladi:

-ishlab chiqarish amaliyotini o‘tganligi to‘g‘risidagi hisobotni kafedraga belgilangan muddatda topshtredi va ximoya qiladi.

## **ISHLAB CHIQARISH AMALIYOTI RAHBARINING VAZIFALARI**

Ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va rahbarlik qilish «Gidrotexnika inshootlari va muhandislik konstruksiyasi» kafedrasi tomonidan amalga oshiriladi. Xar bir amaliyot o‘tayotgan korxonaga institutdan belgilangan kafedraning o‘qituvchilaridan biri rahbarlik qiladi. Bundan tashqari amaliyotni o‘taydigan har bir talaba uchun har bir korxonaning o‘zida korxona boshlig‘i tomonidan rahbar tayinlanadi. Talaba amaliyot uchun ish joyi bilan ta’milanadi. Institutdan tayinlangan amaliyot rahbari ishlab chiqarishda tayinlangan amaliyot rahbari bilan birgalikda talabaga ushbu dasturga muvofiq kalendar reja tuzadi. Rejada ish kunlar soni va mavzular aniq ko‘rsatiladi. Shu bilan birgalikda amaliyotni o‘tish jarayonini nazorat qiladi va talabalarga tegishli maslahatlar beradi. Kalendar rejasini bajarilishini nazorat qiladi. Ishlab chiqarishdan tayinlangan rahbar har bir talabaning kalendar rejsi bilan tanishib, talabaning kalendar rejsi bo‘yicha ishlashini ta’minlaydi. Xar bir talabaga amaliyotni o‘tish uchun tegishli sharoit yaratib beradi. Talabalarning amaliyotiga dastur hamda kalendar rejsi bo‘yicha ishlashini doimiy ravishda nazorat qiladi. Ishlab chiqarish amaliyotining tugashida hisobotning yozilish sifati, mazmunini nazorat qiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti tugaganda har bir talabaga alohida tavsifnomalar beriladi. Hisobot haqida o‘z fikirini yozib baho qo‘yib beradi. Agarda talaba korhonadagi tartib intizomni bajarmassa, korxona rahbari salbiy tavsifnomalar berish huquqiga ega. U holda talaba hisoboti himoyaga qo‘yilmaydi. Natijada amaliyotni qayta o‘taydi.

## **AMALIYOT TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI TAYYORLASH**

Amaliyotning tugashida har bir talabalar bajargan ishi bo‘yicha hisobot topshirishi kerak. Hisobot belgilangan mavzular bo‘yicha yoziladi. Mavzularga oid iqtisodiy ma'lumotlar shakilida kamida 2-3 ta jadval to‘ldirilishi va hisobotga ilova tarizida keritilishi lozim. Hisobot «Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar» kafedrasi tomonidan ishlab chiqilgan «Ishlab chiqarish amaliyotini o‘tkazish bo‘yicha» metodik qo‘llanma talablariga mos ravishda rasmiylashtiriladi. Hisobotda albatda har bir bo‘lim va undagi hujjatlar tartib bilan va mavzularni hisobga olgan holda tikilishi lozim.

## **AMALIYOT KUNDALIGINI TO‘LDIRISH**

Ishlab-chiqarish amaliyoti davomida har bir talabidan mustaqil amaliyot kundalik daftari yuritish talab etiladi. Kundalik daftarining yagona shakili «Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar» kafedrasи o‘qtuvchilari tomonidan ishlab chiqilib kafedra majlisida tasdiqlanadi. Har bir talaba amaliyot kundalik daftarini amaliyotning bиринчи kunidan boshlab to ohirgi kunigacha to‘ldirib borishi kerak. Amaliyot kundalik daftari amaliyot hisobotini tuzish uchun zarur bo‘ladigan barcha ma'lumotlarni to‘playdigan asosnomasi hisoblanadi. Shunga ko‘ra har bir talaba amaliyot kundalik daftarida amaliyot sanalari bo‘yicha amaliyot obekti va uning bo‘limlari hamda amaliyot mavzusining qisqacha izohi yoritib borilishi kerak. Amaliyot kundaligiga amliyotning taqvimiyligi rejasi, amaliyot rahbarining hulosasi, amaliyot natijasi bo‘yicha hayat a'zolarining hulosasi va qo‘ygan bahosi aks ettiriladi.

**1- Ilova**

**O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**“Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muhandislari institute” milliy tadqiqot universiteti**

**«Gidrotexnika qurilishi» fakul’teti**

**«Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar» kafedrasи**

*talabaning malakaviy ishlab-chiqaresh amaliyotini o‘tish uchun*

***KUNDALIK DAFTARI***

**Toshkent-2023 yil.**

**2- Ilova**

---

korxona nomi

---

korxona nomi

**YO‘LLANMA**

“Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muhandislari institute” milliy tadqiqot universiteti «Gidrotexnika qurilishi» fakul’teti 60710800 – “Gidroenergetika”, 60812700- “Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika ob’yektlari”, 60812500 –“Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish” ta’lim yo‘nalishlari 3-bosqich \_\_\_\_\_guruh talabasi \_\_\_\_\_ni institut rektorining «\_\_\_\_\_» 20\_\_\_\_ yil №\_\_\_\_ -sonli buyrug‘iga asosan Siz rahbarlik qilayotgan korxonaga (xo‘jalikka) malakaviy ishlab chiqaresh amaliyotini o‘tash uchun jo‘natilmoqda. Ushbu talabaga O‘zbekiston respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligining bakalavr talabalari uchun «Ishlab-chiqaresh amaliyoti to‘g‘risida» gi Nizomiga binoan sharoit yaratib berishingizni so‘rayman.

Fakul’tet dekani:

---

(F.I.SH)

**3- Ilova****NUSXA**

Amaliyot o'bektidan olingan 20\_\_\_-20\_\_\_yillarning iqtisodiy ko'rsatkichlari.

t/r	Ko'rsatkichlar	20__	20__	20__	20__yilda 20__yilga nisbatan%
1.					
2.					

**Eslatma:** Korxonadan olingan holatdagi nushasi topshirilishi kerak. Bu ko'rsatkichlar malakaviy ishlab chiqarida o'z aksini topishi zarur.

**4- Ilova**

Kundalik daftarining ichki qismi

**«Gidrotexnika qurilishi» fakul'teti**

60710800 – “Gidroenergetika”, 60812700- “Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika ob'yektlari”, 60812500 –“Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish” ta'lif yo'naliishlari 3-bosqich \_\_ guruh talabasining

**AMALIYOT O'TISH KUNDALIGI**

**Talabaning familiyasi** \_\_\_\_\_

**Ismi** \_\_\_\_\_

**Otasining ismi** \_\_\_\_\_

**Amaliyot o'tadigan joy**

---

**Amaliyot o'taydigan joydagi rahbar**

(F.I.Sh., ILMIY UNVONI, LAVOZIMI)

Institutdagi rahbar

(F.I.Sh., ILMIY UNVONI, LAVOZIMI)

Amaliyot o'tish vaqtি «\_\_»\_\_\_\_ 20\_\_ yildan «\_\_»\_\_\_\_ 20\_\_ yilgacha

Fakul'tet dekani:

prof.B.B.Hasanov

«\_\_» 20\_\_ yil  
5- Ilova

1. Talabaning amaliyot o‘tkazish uchun taqvimiylar rejasiga

Nº	Ish joyi	Muddati	Korxonadagi amaliyot rahbarining imzosi
1.			
2.			
3.			

Institutdagi rahbarning imzosi \_\_\_\_\_

6- Ilova

2. Talabaning korxona bo‘limida kundalik bajaradigan ishi

Sana	Biriktirilgan ish joyi	Bir kunda qilingan ishlari
1.		
2.		
3.		

Institutdagi rahbarning imzosi \_\_\_\_\_

7- Ilova

**3. Talabaning xulosa va takliflari**

---

---

---

---

Talabaning imzosi \_\_\_\_\_

8- Ilova

**4. “Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti «Gidrotexnika qurilishi» fakul’teti 60710800 – “Gidroenergetika”, 60812700- “Irrigatsiya tizimlarida gidroenergetika ob’yeqtari”, 60812500 –“Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish” ta’lim yo‘nalishlari 3-kurs talabasi**

Talabaning F.I.Sh

«\_\_» 20\_\_ yildan «\_\_» 20\_\_ yilgacha bishning

korxona (xo‘jalik) nomi

Malakaviy ishlab chiqarish amaliyotini tugatdi.

**Korxonadagi (tashkilot, xo‘jalik) amaliyot rahbarining talabaga bergan xulosasi**

Korxona (xo‘jalik) rahbari

(imzo)

(F.I.Sh)

«\_\_\_\_» 20\_\_\_\_ yil

**9- Ilova**

**5. Amaliyot natijasi  
Hisobot qabul qilgan professor-o‘qituvchining xulosasi**

Talabaning amaliyotni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi (3,4,5 baho)

Hisobotni qabul qilgan professor-o‘qituvchining  
imzosi \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» 20\_\_\_\_ y.

**10- Ilova**

6. «Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar» kafedrasi malakaviy ishlab chiqarish amaliyoti bo‘yicha hisobotni qabul qilish hay'ati a'zolari tarkibi:

Rais: \_\_\_\_\_

F.I.Sh.

A'zolari: \_\_\_\_\_

F.I.Sh

F.I.Sh

F.I.Sh

tomonidan «Gidrotexnika qurilishi» fakul'teti 3-kurs \_\_\_\_ guruh talabasi

ning «\_\_\_\_» 20\_\_\_\_ yildan «\_\_\_\_» 20\_\_\_\_ yilgacha  
da o‘tkazgan malakaviy ishlab chiqarish  
amaliyotidan yozgan hisoboti eshitildi.

Hisobot quyidagicha baholanadi: (3,4,5 baho)

A'lo \_\_\_\_\_

Yaxshi \_\_\_\_\_

Qoniqarli \_\_\_\_\_

Hay'at a'zolaining imzosi:

1. \_\_\_\_\_

2. \_\_\_\_\_

3. \_\_\_\_\_

## **Amaliyot to‘g‘risida hisobotni tashkil rasmiylashtirish va himoya qilish.**

Ishlab chiqarish amaliyotini o‘tkazgandan so‘ng bajarilgan ishlar bo‘yicha 15-20 bet atrofida hisobot yoziladi. Hisobot kafedra tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo‘llanma asosida rasmiylashtirilib, quyidagi hujjatlar asosida bajariladi. Har bir xujjatning namunasi asosida hisobot tayyorlanadi.

1. Xisobot titul varaqasi -1 bet.
2. Institut rektori tomonidan amaliyotni o‘tkazish to‘g‘risida chiqarilgan buyruq yoki yo‘llanma nushasi -1 bet.
3. Kundalik daftар (ishlab chiqarish ob'ekti rahbari yoki mutaxassislari tomonidan tasdiqlanib muhirlangan holda) -1 daftар.
4. Amaliyot ob'ekti va uning faoliyatida bajarilgan ishlar to‘g‘risida hisobot-10-15 bet.
5. Tashkilotning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari aks etgan xujjatlarining nusxasi.

«Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar» kafedrasidan tayinlangan amaliyot rahbarining hulosasi, ya'ni taqrizi bo‘lishi lozim-1 bet.

Yuqoridagilar hisobot shakilida tikilib, ishlab chiqarish amaliyoti tugatgan kundan boshlab 3 kun maboynida «Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar» kafedrasiga hisobot topshiriladi.

«Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar» kafedrasasi majlisi qarori bilan amaliyot to‘g‘risida yozilgan hisobotlarni baholash haya'ti tuziladi. Haya't tomonidan hisobotni qabul qilish vaqt va joylari belgilanadi. Haya'tga himoya qilmagan, topshirmagan yoki qoniqarsiz baholangan talabalarga haya't a'zolari amaliyotni qayta o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqaradi.

## **AMALIYOT DAVRIDA TALABALARING JAMOAT ISHLARIDA QATNASHISH**

Har bir talaba amaliyoti o‘tganda jamoat ishlarida faol qatnashmog‘i lozim. Talabalar jamoa ishlarida faol qatnashish i hamda jamotchilik tamonidan berilgan

topshiriqlarni aniq o‘z vaqtida bajarish kerak. Amaliyot paytida talabalar hozirgi kunning muammolari bo‘yicha mavzular o‘tishi va suhbatlar o‘tkazishi lozim.

## **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Garr M. Jones PE DEE, Robert L. Sanks. Pumping Station Design, 3rd edition ISBN-10: 1856175138 ISBN-13: 978-1856175135 Butterworth-Heinemann United States, 2008.
2. Brennen C. Hydrodynamics of Pumps 288 p Cambridge University Press ISBN : 1107002370 United Kingdom, 2008.
3. M.Kaltschmitt. W.Streicher, A.Wiese. Renewable Energy 596 p. Springer, ISBN: 3540709479 Germany 2007.
4. Anderson H.H. Centrifugal pumps. The trade and technical press Ltd. England, 2001. -103 p.
5. M.Mamajonov va boshqalar. Nasos stansiyalaridan foydalanish. Darslik, «Yangi nashr», Toshkent, 2014. – 436 bet.
6. Mamajonov M. va boshqalar. Nasos stansiyalaridan foydalanish. Darslik, «Yangi nashr», Toshkent, 2014. – 400 bet.
7. Mamajonov M. Nasoslar va nasos stansiyalari. Darslik, Toshkent, 2012. – 352 bet.
8. Badalov A.S., Uralov B.R., Kan E.K., Shaazizov F.Sh. Quduqli nasos qurilmalari. O‘quv qo’llanma, Toshkent., 2013. -110 bet.
9. Majidov T.SH. Noana’naviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari. Darslik, “Voris” nashriyoti, Toshkent, 2014. -168 bet.
10. Klyichev Sh.I., M.M.Muxammadiev, Avezov R.R., Potaenko K.D. Netraditsionnye i vozobnovlyayemые istochniki energii. Uchebnik. Tashkent, «Fan va texnologiya», 2010. – 190 s.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Bakiev M., Kaveshnikov N., Tursunov T. Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish. Darslik, Toshkent, 2008. -456 bet.
2. Nurmuxamedov H.S. va boshqalar. Gidravlika, gidromashinalar gidroyuritkichlar. O‘quv qo’llanmasi, Fan va texnologiya, Toshkent, 2012. – 143 bet.
3. Badalov A.S., Zenkova V.A., Uralov B.R. Gidroelektrostansiyalar. TIMI, Toshkent, 2008. – 152 bet.
4. Kisilyov P.G. Spravochnik po gidravlicheskim raschetam. Moskva, Kolos, 1974, 184 s.
5. Venikov V.A., Putyatin Ye.V. Vvedenie v spesialnost. Moskva, 1982. – 304 s.
6. Neporojniy P.S., Obrezkov V.I. Vvedenie v spesialnost: Gidroelektroenergetika. M., Energoatomizdat, 1990. - 182 s.

7. Alternativnye istochniki energii: vozmojnosti ispolzovaniya v Uzbekistane. Analiticheskiy doklad. T. PROON,2011 – 73 s.
8. Sxema razvitiya malых GES v sisteme Minvodxoza Uzbekistana na period 2010 goda. Toshkent, 1992. – 151 str.
9. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish istiqbollari. YuNDP, Toshkent, 2007. – 92 bet.
10. Mirovaya energetika: prognoz razvitiya do 2020 g. Per. s angl. – Moskva, Energiya, 1990. - 256 s.
11. Lisov K.I., Grigorev K.T. Nasoslar va nasos stansiyalari.O‘quv qo‘llanmasi, «O‘qituvchi», Toshkent, 1980. - 230 b.
12. Cheboevskiy V.F. Nasosы i nasosnye stansii. Uchebnik, Agropromizdat, Moskva,1989 - 415 s.
- 13.[www.energobook.ru](http://www.energobook.ru)
- 14.WWW. Springer.com
- 15.WWW. Suvmash. Uz
- 16.WWW. Suvsanoatmash.uz
- 17.WWW. Aziagidromash.uz
- 18.[www.pump.com](http://www.pump.com)
- 19.Manba: www.es-elektro.ru lindexoz-15, htm; altsi.ru.
- 20.Manba: www. Papplewickum
- 21.Manba:<http://greensource.ru/proizvodstvo-jenergii/kosmicheskaja-solnechnaja-jelektrostancija.html>
- 22.Manba: <http://millit.ru/referaty-fizika/energiya-morej-i-okeanov.php>
- 23.Manba:<http://go.mail.ru/search?q=Techenie+Golfstrimahamda><http://www.21122012.com.ua/priroda/620-techenie-golfstrim-zamorazhivaet-evropu-i-ssha-rossiya-ne-naraduetsya.html>
- 24.Manba:<http://go.mail.ru/search?q=-Energiya+volnhamda>
- 25.<http://www.nek-npo.ru/novaya-energiya/energiya-voln/>
- 26.[http://anyenergy.ru/index/geotermalnye\\_ehlektrostancii/0-24/](http://anyenergy.ru/index/geotermalnye_ehlektrostancii/0-24/).
- 27.<http://go.mail.ru/search?q= Elektroximicheskiy+generator>